

## SHAXSLARARO MULOQOT TUSHUNCHASI OLIMLAR TALQINIDA

Mirzakamolova Sadoqatxon Sayidaxmadovna

Namangan Davlat Universiteti katta o'qituvchisi

[sadoqatmirzakamolova@gmail.com](mailto:sadoqatmirzakamolova@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada shaxslararo aloqa va munosabatlar, muloqot va kommunikatsiya tushunchalari keng yoritilgan. Olimlarning kommunikatsiya va muloqot tushunchasi borasidagi qarashlari haqida fikr yuritilgan, ularning bir biriga o'xshash va o'xshash bo'lmagan fikrlari tahlil qilingan. Muloqot va uning funksiyalari nazariy jihatdan asoslangan.

**Kalit so'zlar:** shaxslararo aloqa, shaxslararo munosabat, muloqot, kommunikatsiya, diskurs, interaktiv model, transaksion model.

## ПОНЯТИЕ МЕЖЛИЧНОСТНОГО ДИАЛОГА В ТОЛКОВАНИИ УЧЕНЫХ.

Мирзакамалова Садокатхон Сайидахмадовна

Старший преподаватель Наманганского государственного университета

[sadoqatmirzakamolova@gmail.com](mailto:sadoqatmirzakamolova@gmail.com)

**Аннотация:** В данной статье всесторонне рассматриваются понятия межличностного общения и отношения, общения и коммуникация. Даны рассуждения взглядов ученых на понятие общение и коммуникация, а также анализированы мнения о сходности друг другу и их несходности. Общение и его функции теоретически обосновано.

**Ключевые слова:** межличностное общение, межличностные отношения, диалог, общения, дискурс, интерактивная модель, транзакционная модель.

## THE CONCEPT OF INTERPERSONAL COMMUNICATION IN THE INTERPRETATION OF SCIENTISTS.

Mirzakamolova Sadoqatxon Sayidahmadovna

Senior teacher of Namangan State University

[sadoqatmirzakamolova@gmail.com](mailto:sadoqatmirzakamolova@gmail.com)

**Annotation:** This article covers a wide range of concepts of interpersonal communication and relationships, interpersonal communication and communication. The views of scientists on the concept of interpersonal communication and communication were considered, the opinions of which are similar and dissimilar to each other were analyzed. Communication and its functions are theoretically based.

**Key words:** *interpersonal communication, interpersonal relationship, communication, dialogue, discourse, interactive model, transactional model.*

## KIRISH

Shaxslararo aloqa va munosabatlar eng avvalo muloqot yordamida amalga oshiriladi. Muloqot odamlar amalga oshiradigan faoliyatlar ichida yetakchi o'rinni egallab, u insondagi eng muhim ehtiyojni-jamiyatda yashash va o'zini shaxs deb hisoblash bilan bog'liq ehtiyojini qondiradi. Shuning uchun ham uning har bir inson uchun ahamiyati kattadir.

Muloqot odamlarning birgalikdagi faoliyatlari ehtiyojlaridan kelib chiqadigan turli faolliklari mobaynida bir-birlari bilan o'zaro munosabatlarga kirishish jarayonidir. Ya'ni, har bir shaxsning jamiyatda bajaradigan faoliyatlari (mehnat, o'qish, o'yin, ijod qilish va boshqalar) o'zaro munosabat va o'zaro ta'sir shakllarini o'z ichiga oladi. Chunki har qanday ish odamlarning bir-birlari bilan til topishishni, bir-birlariga turli xil ma'lumotlarni uzatishni, fikrlar almashinuvi kabi murakkab hamkorlikni talab qiladi. Shuning uchun ham har bir shaxsning jamiyatda tutgan o'rni, ishlarining muvaffaqiyati, obro'si uning muloqotga kirisha olish qobiliyati bilan bevosita bog'liqdir.

Bir qarashda osongina tuyulgan shaxslararo muloqot aslida juda murakkab jarayon bo'lib, unga odam hayoti mobaynida o'rganib boradi. Muloqotning psixologik jihatdan murakkab ekanligi haqida B.F.Parigin shunday yozadi: «Muloqot shunchalik ko'p qirrali jarayonki, unga bir vaqtning o'zida quyidagilar kiradi:

- a) individlarning o'zaro ta'sir jarayoni;
- b) individlar o'rtasidagi axborot almashinuvi jarayoni;
- v) bir shaxsning boshqa shaxsga munosabati jarayoni;
- g) bir kishining boshqalarga ta'sir ko'rsatish jarayoni;
- d) bir-birlariga hamdardlik bildirish imkoniyati;
- e) shaxslarning bir-birlarini tushunishi jarayoni».

Aslida har bir insonning ijtimoiy tajribasi, uning insoniy qiyofasi, fazilatlarini, xattoki, nuqsonlari ham muloqot jarayonlarining mahsulidir. Jamiyatdan ajralgan,

muloqotda bo'lish imkoniyatidan mahrum bo'lgan odam o'zida individ sifatlarini saqlab qolishi mumkin, lekin u shaxs bo'lolmaydi. Shuning uchun muloqotning shaxs taraqqiyotidagi ahamiyatini tasavvur qilish uchun uning funksiyalarini tahlil qilamiz.

Eng avvalo nutq haqida fikr yuritadigan bo'lsak, "O'zbek sovet ensiklopediyasi"da ta'kidlanganidek, tafakkur qilishda, fikr yuritishda, muloqotda tildan, so'zdan foydalanish jarayoni, jamiyat vujudga keltirgan o'zaro fikr almashish vositasining har bir kishiga (individga) xos shakliy ko'rinishidir.[1] Nutq inson madaniyati, uning ilmiy saviyasi, ma'naviy boyligiga mutanosib ravishda yuksalib boraveradi. Kishilarning chiroyli va mazmundor nutq masalasiga qiziqishi juda qadim davrlarga borib taqaladi.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI**

Shaxslararo muloqot va shaxslararo kommunikatsiya tushunchalari deyarli bir ma'noni anglatib, kishilar o'rtasidagi o'g'zaki va yozma aloqa, xabarlashish ma'nolarini anglatadi.

Kommunikatsiyani muhokama qilishdan oldin kommunikatsiya tushunchasi va uning asosiy jihatlariga qisqacha to'xtalib o'tmog'imiz joiz.

Kommunikatsiya- xabarni, ma'lumotni yetkazish degan ma'noni anglatadi.

Kommunikatsiya (lotincha-"communication", umumiy qilyapman, bog'layapman, muloqot qilyapman):

- 1) Xabar berish yo'li, bir joy bilan boshqa joyni bog'liqligi.
- 2) Muloqot qilish, bir odamdan ikkinchi odamga ma'lumot yetkazish vazifalarini bajaradi.

Ma'lumki, kommunikatsiya jarayoni uchun o'zaro ta'sir ko'rsatadigan subyektlar bo'lishi xosdir. Qandaydir o'tkazadigan xabar va ushbu xabar o'tkaziladigan yordamchi asbob ya'ni bu til. Nemis faylasufi Karl Yaspersga muvofiq "Obyektiv" va "ekzistensial" kommunikatsiya mavjud bo'lib, ular orasida farq bor [2].

Obyektiv kommunikatsiya odamlar orasidagi turli xil umumiylik bilan bog'liqdir (umumiy qiziqishlar, umumiy ma'naviy tegishlilik va hokazo). Ekzistensial kommunikatsiya boshqacha holatda yuz beradi. Bunda kommunikatsiya insonni ijtimoiy va shaxsiy hayotini o'zi belgilashi muhim o'rin egallaydi. E'tibor berish kerakki, olimlar uzoq muddat kommunikatsiyani odamlar orasida til orqali bajariladigan munosabatning shakli deb ko'rishar edi. Ammo kommunikativistika rivojlanishi bilan muloqot jarayonini ko'rib chiqilganda faqat til vositalari yuzaki ifoda va fikr shakllanishi deb hisoblash va uning chuqur mohiyatini inobatga olmaslik xam noto'g'ri bo'lar edi. Hozirda kommunikatsiya jarayonini zamonaviy tushunchasi yanada kengayyapti.

Ingliz tanqidchisi I.A.Richard kommunikatsiyani quyidagicha aniqlab beradi: Inson ongi unga taaluqli muhitga shunday ta'sir ko'rsatadiki, uning ta'sirini boshqa inson ongi xis qiladi, va bu boshqa ongda birinchi ong tajribasi paydo bo'ladi va qandaydir darajada birinchi tajribaga da'vat etiladi [3]. Boshqacha aytganda, xabarni berishdan tashqari I.Richard ikkita kommunikant ongi yoki semantik maydon uchun umumiy yaratishdek kommunikatsiyaning muhim qismi haqida aytib o'tyapti. E'tibor beramizki, ko'pchilik olimlar shu nuqtayi nazarni tanlashadi [3,4].

Ma'lumki, kommunikatsiya jarayoniga qandaydir oddiy axborot berish deb qaramaslik kerak, chunki hech qanday axborot yoki xabar shunchaki jo'natilmaydi. Har qanday xabar, ma'lumotni yetkazib berish maqsad bilan bog'liq.

Qabul qiluvchining ma'lum bir xarakterlarini to'g'ri tashkil qilish kommunikatsiya bilan xarakterni o'zaro bog'liqligini ta'kidlab, Yu.B.Rojdestvenskiy kommunikatsiya jarayonini belgilab berish uchun nutq xarakati degan terminni kiritadi [5]. Aynan shu ikkita: xarakter va maqsad hozirgi kunda jamiyatshunoslikda, politologiyada, kommunikativ diskurs termini sifatida ko'p ishlatiladi. Bugungi kundagi matn tushunchasini diskurs so'zi orqali tushunish kerak [6]; muloqot vaziyatiga singigan matn-bu matn orqali muloqot [7].

B.N.Karasikning fikriga ko'ra, matnda ifodalangan ma'lumot bilan bog'langan va kommunikativ holatdan chiqayotgan ma'lumotni tahlil qilishda diskurs tushunchasini ta'kidlab o'tadi.[o'sha joyda].

Shuni ham e'tiborga olish lozimki, har qanday kommunikativ holat madaniyatni daxlsiz unsuridir, shuning uchun u ijtmoiy guruh yoki etnomadaniy ahamiyatga ega bo'ladi.

Kommunikatsiyaning ishtirokchilari qaysi madaniyatga tegishli bo'lishidan qat'iy nazar, ularning kommunikativ hulqi aniq kommunikativ muhit bilan mos bo'lgan tabaqalashgan bo'lishi mumkin. Boshqacha qilib aytganda, diskursning har xil turlari haqida gap ketyapti, aynan, institutsional diskurs haqida o'z navbatida, bu siyosiy, diniy, pedagogik, ishlab chiqarish va boshqa diskurslarga bo'linadi.

Shunga e'tibor berish kerakki, diskursni turli xilligi har xil paytda olimlar orqali xar xil asosda baholanadi. Yuqorida keltirilgan sotsiolingvistik baholashdan tashqari, hozirgi kunda diskursni boshqa daraja turlari mavjud, "diskurs" fenomenini ko'p qirralik va xilma xilligi bilan va turli xil vaziyatda uni tahlil qilish bilan yuzaga keladi.

Jumladan, pragmlingvistika tomonidan diskurs muloqot ishtirokchilarining interaktiv faoliyati, ma'lumot almashish va turli xil kommunikativ strategiya ishlatish yordamida bir biriga ta'sir ko'rsatish desak buladi [8].

Aloqani o'rnatish va ko'maklashish emotsional va information almashinish, ularni "eksplisit va implisit mazmunini kommunikativ yo'llarini birlikda aniqlashdir..."[9]. Boshqacha qilib aytganda, pragmlingvistik diskurs tasnifi uslubni muloqot yo'li va kommunikativ o'zaro ta'sir ko'rsatadigan imkoniyatni inobatga oladi. ( to'qnashuv diskurs, komik diskurs, nafrat diskursi va hokazo).

Yana shunga e'tibor berish kerakki, diskurs murakkab shakllanishni kasb etadi, keyin esa kommunikativ ta'sir ko'rsatishi aniq qismlarga bo'linadi, aynan kommunikativ voqealar, nutqiy ishlar va nutqiy janrlar, unda eng kichik qismi nutqiy qadamdir(replica/luqma). Masalan, siyosiy diskursda shunday nutqiy voqea va janrlar ajralib turadi, siyosiy intervyu, varaqa, saylov oldi munozara, parlament,

siyosiy janjal, karikatura, siyosiy dastur.[10]; ommaviy-informatsion diskursda shahsiy e'lon, nikohdagi e'lon, intervyu, ochiq xat, tok shou, san'atshunoslik, retsenziya, plakat va hokazo [11]; diniy diskursda-slogan; ilmiy diskursda-maqola, ilmiy retsenziya; ishga aloqador diskursda-ishga oid maktub, savdo sotiqqa oid maktub [7] va hokazo. So'zsiz, chegaraga oid janrlar ham bor, qaysiki bir paytda har xil turdagi diskursga tegishli yoki diskurslarni to'qnashishidan hosil bo'ladi.

Diskursning huquqiy holatga yo'naltirilgan turlari institutsional emas, tegishlicha shahsiy yo'naltirilgan. Demak, berilgan taqqoslanish hozirgi ilmiy maqolamiz uchun ahamiyatga egadir, modomiki, agar yo'nalgan –maqom biror bir ijtimoiy guruh vakili dialogi qandaydir bir sifatda o'xshashlik bo'lsa (ya'ni vrach-bemor, advokat-himoya qiluvchi va hokazo), ular jamoat institutlarida o'zining maqomiy roldagi imkoniyatlaridan yuzaga kelgan muloqotlar bo'lsa, shahsiy yo'naltirilgan o'zaro ta'sirdagi, bir birini yaxshi bilgan, bir birlariga o'zlarining dunyosini ochib beradigan kommunikantlar ishtirok etadi. Shahsiy yo'naltirilgan diskurs 2 turga ajraladi: maishiy va hayotiy muloqot (oxirgisida badiiy va faylasuf diskursi inobatga olinyapti) [7].

Diskurslarni o'xshashligi B.M.Glushakning ilmiy ishida yoritib berilgan, shunga ko'ra, muloqot doirasidan tobelikda diskurs 2 turga bo'linadi: uy-ro'zg'or (maishiy) va rasmiy institutsional, B.Karasik nazdida institutsional emas, faqat institutsional bog'lanishga mos keladi xolos. Tadqiqotchi diskurslarni ajratishni quyidagi mezonlarini taklif qiladi:

- muloqot turi (norasmiy- rasmiy muloqot)
- ijtimoiy-statusli muloqot (simmetrik-assimetrik muloqot)
- muloqotchilarning ijtimoiy vaziyatdagi rollari ( o'zgaruvchan va doimiy roli)
- muloqotlarning yaqinlik darajasi (yaqin, betaraf-masofaviy munosabatlar)
- fan-amaliyot faoliyatiga oid bo'lgan kommunikativ munosabatlar (betaraf/neytral, ustun turgan munosabatlar)
- nutqiy o'zaro ta'sirni reglament senariysi bo'yicha (qattiq-qattiq bo'lmagan senariy) [12].

Ma'lumki, muloqot jarayonida kommunikativ rollarning almashinishi sodir bo'lishi mumkin. U oddiy bo'lishi mumkin: adresat va adresant bo'lib qoladi va aksincha. Ammo, G.Kyubler aytganidek, kommunikatsiya bo'yicha sherikli status yoki kommunikativ sharoitini ijtimoiy tuzilishi ular orasida kommunikativ tengsizlikka olib kelishi mumkin, shuning uchun kommunikativ jarayon va uning so'zlashuvchanligi assimetrik tusga kiradi [13].

Shu kunga qadar, kommunikativ jarayon yagona sharxga ega bo'lmagani sababli olimlar modellashtirish uslubini ishlatishadi, ya'ni bitta obyektни boshqasi yordamida sifatларini aks ettirishadi. Kommunikatsiya modeli qo'shma qismlarni sxema sifatidagi kommunikativ jarayonni funksional ta'rifini aks etadi. Modelni mazmuni shu modelni yaratgan konsepsiyasiga bog'liqligi bilan o'zgaradi.(qaysiki soha faniga muhtojlik bo'lsa).

### **TADQIQOT METODOLOGIYASI**

Shunday qilib, model bu –bu olimning tafakkur faoliyatini subyektiv mahsuloti qaysiki, obyektiv bo'lishga da'vo qilmaydi va reallikni aks ettirmaydi. V.B.Kashkinga muvofiq, kommunikatsiyani ilmiy jamoaga taaluqli modellarini mexanistik, masofaviy va nomexanistikga bo'lish mumkin [3]. Klod Shennon va Uoronn Uiverning modeli masofaviy modelga misol bo'lishi mumkin. U o'z ichiga 5 ta elementni kiritadi: ma'lumotni mansabi, o'tkazgich, o'tkazib beruvchining yo'li, qabul qiluvchi va so'nggi maqsad. Barchasi masofaviy birin – ketinlikda joylashgan. Ko'ramizki, berilgan model turli xil bilim sohasida ehtiyojni qondirish maqsadida bir necha marotaba ko'rib chiqilgan, shuning uchun oxirida shunday shaklda ko'rinishni boshladi: uskunani kodlaydigan manba, xabar, yo'l, kodni ochish uskunasi va qabul qiluvchi. Keyinchalik K.Shennon kommunikatsiya uchun yana bitta muhim tushunchani kiritadi bu- shovqin. Shovqinlarni 2 ta turi bor, ular kommunikatsiyani blokga olishga qodir: jismoniy va psixologik. Birinchisiga jismoniy to'sqinlik, bu shovqinli sigaret tutuniga to'lgan xona, unda fikrni jamlash qiyin, odam tez charchaydi. Ikkinchisiga o'ziga juda past baho berish, emotsional hayajonlanish, bular suhbatdoshga jo'natilgan xabarni to'liq va fikrni jamlab qabul qilishga to'sqinlik qiladi [14].

Aytilgan modelni insonni o'zaro ta'sirini reallikga yaqinlashtirishga harakat qilib, K.Shennon qo'shimcha teskari aloqa tushunchasini kiritdi[3]. Gap refleksiya haqida ketyapti, u shaxs o'rtasidagi kommunikatsiyaning muhim belgilaridan biri hisoblanadi.

Refleksiya xabarni javobiga ataylab yoki tasodif jo'natilgan, og'zaki yoki yozma xabar majmuasidir. Boshqacha qilib aytganda, gapirayotgan insonning gapiga quloq soluvchilarning beixtiyor reaksiyasidir.

Yana bitta masofaviy model R. Yakobson tomonidan taklif qilingan hammaga tanilgan model unda: kommunikatsiya ishtirokchilari – adresant va adresat, birinchi ishtirochidan ikkinchisiga o'tadigan va kod orqali tuzilgan xabardir [3]. Bundan tashqari R. Yakobson konterst tushunchasini xabarning mazmuni va berib o'tiladigan xabar bilan bog'liq bo'lgan va kommunikatsiyani tartibga keltiradigan jihat bilan bog'liq bo'lgan kontakti kirityapti. Ushbu model sotsiolingvistika orqali o'zlashtirilgan ontologik yo'nalishga ega nafaqat tilni balki foydalanuvchi tilini xam inobatga oladi. Tuzilishi lingvistikaning asoschisi Ferdinand de Sossyurning g'oyalaridan farqli ushbu model antropologik yo'nalishga ega va nafaqat tilni o'zini va til foydalanuvchisini inobatga oladi.

M.Baxtin nomi bilan bog'liq dialogizm falsafasi g'oyalarini tarqatish kommunikatsiyani nomasofaviy modelini yaratishga olib keldi. M.Baxtinning ulkan g'oyalaridan biri birinchi o'rinda bu yo'nalishlik, yani tinglovchisiz gapiruvchi yo'q, adresatsiz adresant yo'q; hamda xronotopni ham eslatib o'tish kerak. Har qanday fikr faqat kontekstda ma'lum bir vaqtda va ma'lum bir joyda ma'no beradi.[15] O'xshash g'oyalar fransuz semiologi Rolan Bartda ham bor. Uning ta'kidlashiga ko'ra, til bu belgilarni barcha imkoniyatlari va tushunchalari, ularni individual yoki boshqa tarixiy daqiqalarda foydalanish mumkin, ya'ni til prinsipial, individual va cheksiz belgi maydonini tashkil qiladi [16].

Shubhasiz, olimlarning qarashlari K.Shennonning kommunikatsiya modelini sodda tuzilishini murakkablashtiradi.

Bugungi kunda kommunikatsiyani boshqa modellari ham bor, tepadagi ma'lumotlarni aniqlashtirib beradi va rivojlantiradi. Ular masofaviy va interaktiv

modelni ajratib berishadi, nomasofaviylikni esa transaksion yo'l bilan aniqlab beradi. [14]. Masofaviy modelda kommunikatsiya bir tomonlama jarayonda ko'rib chiqiladi. Bu ko'pincha yozma kommunikatsiyaga xos va o'zaro muloqotda jarayonning hamma xususiyatlarini qamrab ololmaydi.

Interaktiv modelning farq qiluvchi belgilari orqaga qaytadigan aloqaga xizmat qiladi, davriy, aylanasiimon kommunikatsiyani aks etadi. Bu ikki model qator diskretdek kommunikatsiyani tasvirlaydi, ya'ni alohida tugatilgan aktlarni. Adresant qandaydir xabarni jo'natadi, keyin esa qabul qiluvchi xabarni kodlashtiradi.

Transaksion modelni jo'natish jarayoni va xabarni olish kommunikator orqali bir paytda sodir bo'ladi. Bundan tashqari, kommunikatsiyani har bir ishi bo'layotgan va davom etayotgan voqealardan ajratish qiyinligini ko'rishga yordam beradi. U kommunikatsiyaning eng asosiy xislatlaridan biri ekanligini va subyektlarni uzluksiz o'zaro bog'liqligini aks ettiradi [o'sha joyda].

M.L.Makarovning fikriga ko'ra, kommunikatsiyaning xronologik bo'lishi kodlanganda inferension va interaksionga, "mexanistik ontologiya yangicha, diskursiv" dan harakat dinamikasiga aylanadi [17]. U uchta asosiy modellarni ajratib beradi: information-kodlangan model, inferension model va interaksion model. Birinchisi, gapirayotgan jo'natuvchi va tinglovchi qabul qiluvchi orasidagi o'zaro harakatni ko'rsatadi. Til saqlay oladigan yoki o'zgartira oladigan fikrni yoki xabarni kodlash uskunalariga ega. Bu model oddiy intersubektivlikka asoslangan kommunikatsiyaning maqsadi umumiy fikr yoki xabar; bu maqsadga erishish jarayoni umumiy kod birligiga asoslangan.

Inferens modelda kommunikatsiya ishtirokchilari ham, xabar ham boshqa statusga ega bo'lishadi. Intersubjektlik bu yerda ham muhim ahamiyatga ega bo'lib boshqa statusga ega bo'ladi. Inferensial model o'zini funksional asos sifatida prinsipini ishlatadi. Shunday holatlarda suhbat jarayonida inson qandaydir fikr berishi emas, avvalo boshqalarga intensiyasi tushunarli bo'lishi kerak. Nutq vositalari maqsadni ifodalash uchun fikr va uning mazmunini chegaralamay, (kodlangan modeldan ko'ra) ular emotsiyani xam ifodalashi mumkin.

Shuni ta'kidlash kerakki, kommunikatsiyani interaksion modelining asosiy prinsipi ijtimoiy-madaniy sharoitga sho'ng'igan o'zaro ta'sir yaqqol ko'zga tashlanyapti. Shunday qilib, kodni til tuzilishi emas, kommunikativ shartli ijtimoiy amaliyot transformatsiyasi tabiatini tushuntirib beradi. Markazga hulqdek kommunikatsiyaning jihatlari oldinga chiqadi, nafaqat intensional balki, muloqot "gapirayotgan" xoxlasa xoxlamasa, hamda tinglovchining tinglash niyati bor yo'qligiga qaramasdan sodir bo'lishi mumkin. Interpretatsiya yoki orqaga qaytish aloqa interaksion modelida muvaffaqiyat mezonidir, bunda "o'zaro tushunishga erishish"dek asosiy vazifa deb qaraladi. Shunday qilib, berilgan modelni assimetriyasi tug'iladi, chunki fikrning tug'ilishi va ularning interpretatsiyasi ba'zida farq qiladi. Interaksion model kuchli vaziyatga bog'liqlik beradi, kommunikatsiyaning og'zaki jihati hisobida va hamma faoliyatda qayd etiladi.

Unda ham bunda ham izlanuvchi holatni bilishi bilan o'zini tabiatga ko'ra konvensional ammo til kodini algoritm darajasidan uzoq [17]. Bizning nazarimizda, hamma kommunikatsiyani interaksion modellarning barchasidan diskursion ontologiyaga mos keladi, va shunday qilib u shaxslararo muloqot uchun aynan ochiq va ishonchli muloqot holatida afzaldir.

"Shaxslararo muloqot" tushunchasiga o'tishdan oldin, kommunikatsiyaning har xil turlari miqdoriy va sifatli kommunikanlarning tarkibiga bog'liq. Ishtirokchilarning miqdoriga qarab kommunikatsiyani quyidagi turlarini ajratib olamiz:

- intrapersonal (o'z o'zi bilan suhbat)
- shaxslararo (odatda 2ta kommunikant ishtirok etadi)
- guruh (guruhlar yoki individ va guruh orasida suhbat quriladi)
- ommaviy kommunikatsiya (katta miqdordagi odamlar xabarni qabul qilishadi va ishlatishadi).[3].

Bizning ishimizda shaxslararo kommunikatsiya katta ahamiyatga ega, shuning uchun o'zaro ta'sir kommunikativ turiga batafsil to'xtaymiz.

Shaxslararo kommunikatsiya "konversiya" deyiladi va o'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan funktsiyani bajaradi. U individni fikrini, hulqini, ijtimoiy ko'rsatma va qadr-qimmat oriyentrini o'zgartiradi.

O.I.Matyashga muvofiq, shaxslararo kommunikatsiya nazariyasida shaxslararo muloqot tushunchasida 2 ta yondashish beriladi- diadlik (miqdorli) va shaxsga oid (sifatlilik yoki gumanistik) [18]. Shaxslararo kommunikatsiyadagi diadniy (yoki miqdorga oid) 2 individual o'zaro ta'sirni nazarda tutadi. Gumanistik (yoki shaxsga daxldor) uchun ishtirokchilarni soni emas, ularning bir birining fe'liga qarab sifatli munosabatlari hisoblanadi. Shuni inobatga olib, individlar o'zaro ta'sirga kirishganda shaxslararo ta'sir bo'lishi yoki bo'lmasligi mumkin degan xulosa chiqarsak bo'ladi. Ushbu gapiruvchi oddiy ijtimoiy rol vositachisi bo'lmasdan, alohida "men"ni vositachisi bo'lib qoladi.[18]. Shaxslararo muloqot tushunchasi kommunikantlar orasidagi shaxs ahamiyati munosabatiga asoslanib turadi. Aynan shunga asoslanib shaxssiz depersonalizmlangan kommunikatsiyaga zid bo'lib ajralib turadi. Oxirgisi suhbatdoshni fe'lini mutlaqo ahamiyatga olmaslikdir.

Shunday qilib, shaxslararo muloqotni ko'rib chiqilayotganda bizning tadqiqotimiz uchun muhim va ahamiyatga ega bo'lgan xususiyatlar ajralib turadi, bular: munosabatlarni almashtirib bo'lmaydigan, sherikka murojaat, o'zini ochishga tayyor bo'lishlik, ishonuvchanlik, shaxsiy ma'nolarda umumiylik (umumiy ma'no maydoni mavjudligi), dialogik yondashish, dialogiklik, dialogizm (munosabatni va kommunikatsiyani sifati) [20].

Tadqiqotchilar shaxslararo kommunikatsiyani xarakterlamoq uchun quyidagi parametrlarga amal qilishadi:

- 1) O'zaro ta'sir modeli
- 2) Ishtirokchilarning miqdori
- 3) Kommunikatsiyaning shakli (bevosita/vositali)
- 4) Kommunikatsiyaning fe'li (kommunikantlarning yaqinlik darajasi, chuqurligi, rasmiyatchilik va hokazo.[19].

Ushbu tadqiqotda bir biriga kirishish va insoniy munosabatga javobgarlik darajasi masalasi muhimdir. Psixologlar bir necha darajani ajratib berishadi-yuzaki(rasmiy), instrumental (shariklar uchun tashqi masalalarni yechishga yo'naltirilgan) va chuqur intim. Har bir darajada, ya'ni shariklar orasida qandaydir ma'noli birlik yaratilishi, umumiy ma'noli maydon (semantik) shakllanishi sodir bo'ladi [20].

Shaxslararo kommunikatsiya doimo munosabatlar paytida amalga oshadi va uni rivojlanishiga imkon beradi. Shunday qilib, kommunikantlar orasidagi munosabat muhit va kommunikatsiyaning mahsuloti bo'lib chiqadi. Ammo shaxslararo kommunikatsiya va shaxslararo munosabatlar o'xshash emas degan fikr ham mavjud, modomiki birinchisi tasodifiy to'qnash bo'lib, davomiy munosabatga olib bormasligi mumkin.

Tadqiqotning maqsadi uchun e'tibor qaratadigan bo'lsak, ishtirokchilarning soniga emas, balki kommunikatsiyaning o'zaro munosabat fe'liga to'xtalmog'imiz kerak.

V.P.Konitskaya shaxslararo kommunikatsiyani quyidagi o'ziga xos xususiyatlarini ajratadi: muqarrarlik(insonning muloqot qilishi kerak bo'lgan muhim ehtiyoji) va qaytarib bo'lmaydigan (aytilganni yo'qotib bo'lmaydigan), bevosita qarama-qarshi aloqa (shaxslararo kommunikatsiyani amalga oshishi muqarrar bo'lgan sharoit), ko'p ko'pyo'llilik (bu bir paytda bir nechta xabarni qabul qilish va yetkazish imkoniyati- eshitish, bardoshli bo'lish, qo'l bilan teginish, hidni sezmoq, o'zi bilan sherigi orasidagi masofani baholash), har xil shakldagi muhim /yakkama yakka, boshqa shaxslar borligida yoki vositali- telefon orqali, kompyuter orqali aloqa suhbatda intervyu shaklida, debat, oshkor va suddagi muloqot) [20].

## **TAHLIL VA NATIJALAR**

Shaxslararo kommunikatsiya turli xil munosabatlarda mavjud bo'ladi ya'ni: hamkasblar munosabatida, boshliq va ishchilar, sotuvchi va xaridor, tarbiyachi va tarbiyalanuvchi va hokazo.

Nutqiy yoki nutqsiz ta'sirda sodir bo'layotgan muloqot shaxslararo deb ataladi.[14]. Bu ta'rif O.Matyash fikri bilan yaqinlashyapti. Shuni aytib o'tish kerakki, "shaxslararo muloqot","shaxslararo kommunikatsiya" tushunchasi bilan mos keladi. Shaxslararo muloqotni predmet sohasini aniqlashda "muloqot" so'zining ma'nosi yordam beradi. Tadqiqotga ko'ra, [21] odatdagi ong uchta ma'no guruhi bilan bog'liq:

- 1) Birlashish, birlikni yaratish( yaxshi ulfatlar, do'stlar), yaxlitlik
- 2) Xabarni berish, almashish (" gaplashish, suhbat qurish)
- 3) Muqobil harakat, bir biriga kirishish( gohida sirli yoki intimlik (bir birini chuqur tushunish)

Tanlangan qiymatlarni maxsus atamalar yordamida tuzatish (masalan,"shaxslararo aloqa","shaxslararo kommunikatsiya", "shaxslararo o'zaro munosabatlar", "shaxslararo munosabatlar") shaxslararo muloqot nazariyasining asosiy tushunchalari tizimini belgilaydi. Shunday qilib, "shaxslararo aloqa" tushunchasi (lat. kontakt-teginish) kommunikatorlarning bir-birini idrok etish imkoniyati doirasida bo'lishini anglatadi va ularning harakatlari to'g'ridan-to'g'ri bir-biriga qaratilgan bo'ladi. Shunday qilib, ular nafaqat bir-birlarining mavjudligini tan olishadi, balki aloqa kanallari orqali ma'lumot uzatish uchun sharoit yaratib, o'zaro aloqada bo'lishadi. Aloqa turiga (ishbilarmonlik, aqliy) muvofiq odamlar o'rtasidagi munosabatlar rivojlanadi. Yuqoridagilar bilan bog'liq holda, ushbu konsepsiya aloqa sharoitlarining paydo bo'lishi muammosini o'rganish vositalaridan biri hisoblanadi. "Shaxslararo aloqa"ning yana bir tushunchasi sheriklar o'rtasida xabar almashish, ularni qabul qilish va qayta ishlash usullarini tahlil qilishga qaratilgan. "Shaxslararo o'zaro ta'sir" tushunchasi muloqot qiluvchilarning faolligini ta'kidlab, xatti-harakatlar, faoliyat, munosabatlar va munosabatlarning o'zaro o'zgarishiga olib keladigan individual harakatlarning shakllari va turlarini batafsil o'rganishga imkon beradi. Va nihoyat, "shaxslararo munosabatlar" tushunchasi odamlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning hissiy jihatlariga e'tibor qaratadi va muloqotni tahlil qilishda vaqt omilini kiritadi, chunki faqat doimiy shaxslararo aloqa sharoitida, shaxsiy ahamiyatga ega bo'lgan

ma'lumotlarni doimiy ravishda almashish orqali, aloqada bo'lgan odamlarning bir-biriga yaqin munosabati va mavjud munosabatlarni saqlab qolish uchun o'zaro javobgarlik paydo bo'ladi [14]. Tushunchalarning taklif qilingan farqlanishini to'g'ri anglab, kelajakda biz "shaxslararo muloqot" va "shaxslararo kommunikatsiya" tushunchalarini teng ravishda ishlatamiz.

Shuni ta'kidlash kerakki, har qanday shaxslararo munosabatlar bilimlarni taqdim etishning to'g'riligi bilan bog'liq bo'lgan epistemik modallik, shuningdek, xabar qilingan narsaga ishonch yoki ishonchsizlikni ifodalash bilan tavsiflanadi. O'z mohiyatiga ko'ra shaxsiy bo'lgan shaxslararo muloqot asosan ommaviy muloqotdan jamoat, jamoat tabiati va jamoaviy adresat yo'qligi bilan farq qiladi. Keyinchalik, biz "shaxslararo munosabatlar" atamasidan ham foydalanamiz, chunki biz uchun samimiylilik amalga oshiriladigan ishonchli munosabatlarni shakllantirish uchun asos yaratadigan samimiy tarkibiy qism muhimdir.

Shaxslararo muloqotning mohiyatini tushunish uchun muhim bo'lgan narsa, bizning fikrimizcha, funksional jihatdir. Ma'lumki, har qanday hodisaning mohiyati uning funksiyalari tufayli aniq bo'ladi. Olimlar shaxslararo muloqotning ko'plab funksiyalarini ajratib ko'rsatishadi, ular orasida:

- 1) aloqa funktsiyasi-kontaktni xabarlarni qabul qilish va uzatish va o'zaro munosabatlarni doimiy ravishda o'zaro yo'naltirgan shaklida saqlash va o'rnatish;
- 2) axborot funktsiyasi-xabarlar, fikrlar, g'oyalar, yechimlar almashish;
- 3) rag'batlantirish funktsiyasi-sherikning faoliyatini, uni muayyan harakatlarini bajarishga yo'naltirish uchun rag'batlantirish;
- 4) muvofiqlashtirish funktsiyasi-qo'shma faoliyatni tashkil etishda harakatlarni o'zaro yo'naltirish va muvofiqlashtirish;
- 5) tushunish funktsiyasi-xabarning ma'nosini yetarli darajada idrok etish, tushunish va o'zaro tushunish – niyatlar, munosabat, tajribalar, holatlar;
- 6) hissiy funktsiya-sherikda zarur hissiy tajribalarni uyg'otish, shuningdek uning yordami bilan uning tajribalari va holatlarini o'zgartirish;

7) o'zaro munosabatlarni o'rnatish funksiyasi-shaxs faoliyat ko'rsatadigan jamiyatning rol, maqom, biznes, shaxslararo va boshqa aloqalar tizimidagi o'rnini anglash va belgilash;

8) ta'sir qilish funksiyasi-sherikning holati, xulq-atvori, shaxsiy-semantik shakllanishidagi o'zgarishlar [14].

Bizning tadqiqotimiz uchun eng muhimlari shaxslararo muloqotning aloqa, rag'batlantirish, hissiy funksiyalari, shuningdek, munosabatlar va tushunish funksiyasidir. Ko'rinishidan, ular ko'pincha samimiy suhbatda amalga oshiriladi. Bunga misol, direktorning samimiy nutqi va shaxsan muhim ma'lumotlarni ishonib topshirish uchun qulay muloqot muhiti yaratilishi.

Shaxslararo muloqotni tavsiflash uchun bir xil darajada muhim mezon kommunikativ masofadir. An'anaviy ravishda to'rtta asosiy tur ajratiladi: intimmasofa (0,5metrgacha); shaxsiy (shaxsiy) (minimal 0,5 m -1,25 m); ijtimoiy (minimal 1,25 m – maksimal 3,5 m), rasmiy (ommaviy) (3,5 – 7,5 m). Birinchi intim zona, odam tomonidan iloji boricha ehtiyotkorlik bilan himoyalangan, shuning uchun u yerga kira oladigan odamlar doirasi eng yaqin odamlar bilan cheklangan. Do'stlar bilan muloqot qilishda shaxsiy masofa ko'pincha bizni ajratib turadi. Ijtimoiy masofa- bu notanish odamlar, shuningdek, rasmiy muhitda tanishlar o'rtasida hosil bo'lgan masofa [22].Shu munosabat bilan shuni ta'kidlash kerakki, samimiy suhbat samimiy masofada ham (eng yaqin narsa faqat eng yaqin odamga ishonib topshirilishi mumkin degan ma'noni anglatadi) va kommunikatorlar o'rtasidagi ijtimoiy masofada (masalan, tasodifiy sayohatchilarning suhbat) sodir bo'lishi mumkin. Bizning fikrimizcha, masofani qisqartirish (masalan, ijtimoiy masofadan shaxsiygacha) ishonchli muloqotning potentsial belgilaridan biri bo'lib xizmat qilishi va ochiq suhbat doirasida ishlatilishi mumkin.

Shunday qilib, oraliq natijalarni sarhisob qilar ekanmiz, shuni ta'kidlash kerakki, shaxslararo aloqa fenomeni kommunikativ o'zaro ta'sirning turli nuqtai nazarlari va modellarini tahlil qilinish mumkin bo'lgan murakkab, ko'pqirrali hodisadir.

## **XULOSALAR**

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, shaxslararo aloqa kommunikatorlar uchun shaxsan muhim bo'lgan munosabatlarga asoslanadi. Ishonchli munosabatlarni ko'rib chiqishning bir qismi sifatida ushbu maqola muhim hisoblanadi, chunki u kommunikatorlar o'rtasidagi ma'lum bir yaqinlikni ta'kidlaydi.

Shunday qilib, muloqot odamlarning jamiyatda o'zaro hamkorlikdagi faoliyatlarining ichki psixologik mexanizmini tashkil etadi. Qolaversa, hozirgi yangi demokratik munosabatlar sharoitida turli ishlab chiqarish qarorlarini yakka tartibda emas, balki kollegial – birgalikda chiqarish ehtiyoji paydo bo'lganligini hisobga olsak, odamlarning muomala madaniyati va muloqot texnikasi mehnat unumdorligi hamda samaradorlikning muhim omillaridandir.

## **ADABIYOTLAR**

1. O'zbek sovet ensiklopediyasi. T.8.-T., 1976. 88-b
2. Ясперс, К. Философская вера / К. Ясперс/ Смысл и назначение истории; пер. с нем. 2-е изд. - М.: Республика, 1994.
3. Кашкин, В.Б. Введение в теорию коммуникации: учебное пособие / В.Б. Кашкин. - Воронеж: Изд-во ВГТУ, 2000. - 175 с.
4. Матъяш, В.М. Погольша, Н.В. Казаринова, С. Биби, Ж.В. Зарицкая; под науч. ред. О.И. Матъяш. - СПб.: Речь, 2011. - 560 с.
5. Рождественский, Ю.В. Общая филология / Ю.В. Рождественский. - М.: Фонд «Новое тысячелетие», 1996. - 326 с.
6. Арутюнова, Н.Д. Дискурс / Н.Д. Арутюнова // Лингвистический энциклопедический словарь / Гл. ред. В.Н. Ярцева - М.: Сов. Энциклопедия, 1990- С. 136-137.
7. Карасик, В.И. Языковые ключи / В.И. Карасик. - Волгоград: Парадигма, 2007. - 520 с.
8. Dijk, T.A. van. Studies in the Pragmatics of Discourse / T.A. van Dijk. - The Hague: Mouton, 1981. - 261 p.

9. Карасик, В.И. О типах дискурса / В.И. Карасик // Языковая личность: институциональный и персональный дискурс: сб. науч. тр. - Волгоград: Перемена, 2000. - С. 5-20.
10. Шейгал, Е.И. Семиотика политического дискурса: монография / Е.И. Шейгал. - Волгоград: Перемена, 2000. - 368 с.
11. Тырыгина, В.А. Проблема жанра в массово-информационном дискурсе: дис. ... докт. филол. наук: 10.02.04 / Валентина Алексеевна Тырыгина. - М., 2008. - 375 с.
12. Глушак, В.М. Лингвопрагматический аспект речевого поведения коммуникантов в ситуациях повседневного общения (на материале немецкого языка): автореф. дис. ... д-ра филол. наук: 10.02.04 / Василий Михайлович Глушак. - М., 2010. - 46 с.
13. Kubler, H.D. Kommunikation und Massenkommunikation / H.D. Kubler. - Munster: Lit-Verlag, 1994. - 204 s.
14. Куницына, В.Н. Межличностное общение. Учебник для вузов / В.Н. Куницына, Н.В. Казаринова, В.М. Погольша. - СПб.: Питер, 2001. - 544 с.
15. Бахтин, М.М. Проблема речевых жанров / М.М. Бахтин // Эстетика словесного творчества. - М.: Искусство, 1979. - С. 237-280.
16. Барт, Р. Нулевая степень письма / Р. Барт // Семиотика. - М.: Радуга, 1983. - С. 306-349.
17. Макаров, М.Л. Основы теории дискурса / М.Л. Макаров. - М.: ИТДКГ «Гнозис», 2003. - 280 с.
18. Матьяш, О.И. Изучение и преподавание межличностной коммуникации / О.И. Матьяш // Теория коммуникации и прикладная коммуникация. Вестник Российской коммуникативной ассоциации / под общ. ред. И.Н. Розиной. - Ростов на Дону: ИУБиП, 2004. - Вып. 2. - С. 103-122.
19. Гуляева, М.А. Отказ от общения как составляющая межличностной коммуникации: автореф. дис. ... канд. филол. наук: 10.02.19 / Марианна Александровна Гуляева. - Волгоград, 2013. - 20 с.

20. Конечкая, В.П. Социология коммуникации: учеб. / В.П. Конечкая. - М.: Междунар. ун-т Бизнеса и Управления, 1997. - 304 с.
21. Бессонова, Л.Ф., Доценко, Е.Л. Обыденные представления о структуре общения / Л.Ф. Бессонова, Е.Л. Доценко // Вестник МГУ. Серия 14. Психология. - 1999. - № 2. - С. 23-33.
22. Hall, E.T. The Hidden Dimension / E.T. Hall. - Anchor Books, New York, 1969. - 217 p.